



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR-SENTABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel.: 61-222-75-87

## Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalaridan tomonidan 12986,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 101,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86,5 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 3,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 1,3 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish – 1,7 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 100,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2021-yil

B

0,6 %


2022-yil

B


0,8 %

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Ohah tosh, ming t.	120,4	173,4	53,0




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1503,1	1026,4	-476,7
Gaz kondensati, ming t.	67,6	60,7	-6,9

### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

FHI,% da



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11230,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,5 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-sentabr

85,3 %

2022-yil yanvar-sentabr

86,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yil yanvar-sentabr 1,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 61,6 % (63,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,9 % (4,3 %) va quyi texnologiyali – 33,3 % (30,7 %) ni tashkil etdi.




Yuqori texnologiyali O'rta-yuqori texnologiyali O'rta-quyi texnologiyali Quyi texnologiyali


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 62,2 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,4 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 16,3 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,9 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,5 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**  
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Aroq**




**Paxta chigiti**



**Sement**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**



**Kalava ip**



**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 24,3 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga), 1,4 ming tonna tozalangan guruch(20,0 %), 220,7 ming tonna portlandsement (13,2 %), 33,9 ming tonna paxta chigiti (11,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘ati kuzatildi. Shuningdek, 10,9 ming tonna kalava ip (6,6 %), 84,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (6,8 % ), 2598,3 ming litr aroq (9,2 %) va 1,9 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (58,3 %) ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<i>Aroq, ming litr 100 % li spirt</i>	2861,4	2598,3	-263,1
<i>Polietilen, ming t.</i>	226,8	226,1	-0,7
<i>Polipropilen, ming t.</i>	64,1	63,5	-0,6
<i>Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.</i>	90,8	84,7	-6,1
<i>Paxta tolasi, ming t.</i>	19,4	24,3	4,9
<i>O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.</i>	4,6	1,9	-2,7


### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,6 % ni, fizik hajm indeksi 103,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6922,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 94,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,5 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 411,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1669,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 121,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 160,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 131,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 12,7 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1590,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 84,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 132,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 117,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1564,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,3 % ga kamayganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3674,5	4000,8	326,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	39,9	31,4	-8,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	68157,8	76497,9	8340,1

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 91,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5858,9	6543,4	684,5
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	11841,9	13521,1	1679,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	47443,0	49802,8	2359,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 5,0 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 11,7 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 14,2 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2259,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 17,4 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-sentabr

57,7 %

2022-yil  
yanvar-sentabr

65,0 %

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-sentabr

42,3 %

2022-yil  
yanvar-sentabr

35,0 %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,9 % (2021- yil yanvar- sentabr oylari 6,0 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,2 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,2 % ni, Ellikqal'a tumani 11,1 % ni, To'rtko'l tumani 8,8 % ni, Amudaryo tumani 7,4 % ni, Beruniy tumani 7,3 % ni, Xo'jayli tumani 6,9 % ni va Qo'ng'iro't tumani 5,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (112,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Shumanay (158,9 %), Ellikqal'a (155,7 %), Amudaryo (142,7 %), Qorao'zak (134,7 %), Mo'ynoq (126,8 %), Xo'jayli (125,9 %), Beruniy (119,5 %), Nukus (118,4 %) hamda Bo'zatov (113,7 %), tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,2 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,2 % ni, Ellikqal'a tumani 11,1 % ni, To'rtko'l 8,8 % ni, Amudaryo tumani 7,4 % ni, Beruniy tumani 7,3 % ni, Xo'jayli tumani 6,9 % ni va Qo'ng'iro't tumani 5,3 % ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 21,8 % ni, shuningdek, Nukus shahri 16,2 % ni, To'rtko'l tumani 10,0 % ni, Xo'jayli tumani 9,6 % ni, Amudaryo tumani 6,9 % ni hamda Beruniy tumani 6,1 % ni tashkil etdi.

**651,4** mlrd. so'm


2020- yil

**831,8** mlrd. so'm



2021- yil

**790,0** mlrd. so'm

2022- yil



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 22,3 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 16,8 % ni, To'rtko'l 8,2 % ni, Beruniy 7,9 % ni, Amudaryo 7,7 % ni, 5,4 % ni Chimboy hamda Ellikqal'a tumanlari tashkil etdi.



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,7 %), Taxiatoş (12,6 %), Qo‘ng‘irot (4,8 %), To‘rtko‘l (3,7 %), Amudaryo (3,3 %) va Beruniy (3,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

2020- yil

9660,0 mlrd. so‘m

2021- yil

11734,0 mlrd. so‘m

2022- yil

12986,3 mlrd. so‘m



2020- yil


102,5 %

2021- yil

105,8 %

2022- yil

101,0 %




FHI, % da

mlrd. so‘m




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (21820,5 ming so'm) va Taxiatosh tumanida 21558,4 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (6627,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasi





o'sish sur'ati  
ming. so'm

### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1153,2 ming so'm bo'lgani holda, Taxiatosh tumanida 3635,9 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida 2062,0 ming so'mni, Ellikqal'a tumanida 1515,1 ming so'mni, Xo'jayli tumanida 1232,8 ming so'mni va Shumanay tumanida 1121,1 ming so'mni tashkil etdi.


#### Qoraqalpog'iston Respublikasi



o'sish sur'ati  
ming. so'm

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2568,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.



### Qoraqalpogʻiston Respublikasi

2020- yil

1974,4 mlrd. soʻm

2021- yil

2473,0 mlrd. soʻm

2022- yil

2568,2 mlrd. soʻm



2020- yil

20,4 %

2021- yil


21,1 %

2022- yil

19,8 %

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda respublikada 3480 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1961 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 56,4 %) Nukus shahriga 699 tasi (20,1 %), To'rtko'l 354 tasi (10,2 %), Amudaryo 312 tasi (9,0 %), Ellikqal'a 302 tasi (8,7 %) Beruniy 294 tasi (8,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 44 ta loyiha bo'yicha 488,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 10,8 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 74 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 62,4 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining oshganligi kuzatildi.